



HOMER ASARLARIDA SADOQAT TIMSOLI (“ODESSIYA” MISOLIDA)

Boltayeva Iroda

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlar pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15184070>

ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 4th April 2025

Published: 9 th April 2025

KEYWORDS

Homer, “Odisseya”, sadoqat, yunon adabiyoti, epik doston, Penelopa, Odisseya, Evrikleya, Argus.

ABSTRACT

Homerning “Odessiya” dostoni yunon adabiyotining eng mashhur epik asarlaridan biri bo'lib, unda sadoqat muhim mavzulardan biri sifatida tasvirlanadi. Ushbu maqolada “Odessiya” dostonida sadoqatning turli qirralari, jumladan, Odisseyning vatanga va oilaga bo'lgan sadoqati, Penelopaning eriga bo'lgan vafosi va Evrikileyaning sodiqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, asarda sadoqat tushunchasining badiiy-estetik ifodasi va uning doston rivojidadagi o'rni ham yoritiladi.

Yunon adabiyotining boshlovchilaridan biri sanalmish Homer IX asrda Yunonistonda yashab ijod etgan. Biroq uning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar yetib kelmagan bo'lsa-da jahon adabiyotshunoslari uni yunon adabiyotining boshlovchisi deb bilishadi. Uning barcha asarlari Yunon xalqining yashash tarzi, xislat va fazilatlarini ifoda etgan. “Illiada” va “Odisseya” dostonlari Homerning qadimgi yunon adabiyotining eng mashhur yodgorliklaridan biri bo'lib, u sarguzasht va insoniy qadriyatlarni o'z ichiga olgan epik dostonlardir. “Odisseya” asr o'tgan sari o'z dolzarbligini yo'qotmagan, aksincha, har bir davr kishisi unda o'ziga xos ma'nolarni kashf etib kelmoqda. Bu asar nafaqat yunon adabiyotining, balki jahon madaniyatining ham bebaho durdonalaridan biri sanaladi. Dostonning asosiy qahramoni Odissey Troya urushidan so'ng o'z vataniga qaytish uchun yigirma yillik darbadarlikdan keyin sadoqatli rafiqasi Penelopa oldiga tanib bo'lmaydigan holatda qaytib keladi. Asarda Odisseyning boshidan kechirganlari, Uyidagi kuyoblarni mavh etgani va Poseydonning nafratidan qutulib oxirida bashoratga muvofiq o'lim topishi va boshqa voqealar yoritilgan. Asar brogan sari kitobxonni o'ziga jalb etishining asosiy sabablaridan biri bu turfa sarguzashtlarga boyligidir. Odissey havas qilguli inson. Chunki uning hasadgo'y hamrohlari bo'lgani kabi sodiq do'stlari va vafoli yori bor edi. Dostonning markaziy mavzularidan biri ham huddi shunday. Bosh qahramon Odissey yo'l davomida ko'plab qiyinchiliklarga uchrashiga qaramay, o'z yurtiga sog'-salomat yetib keladi. Bu jarayon juda uzoq vaqt davom etgan. 10 yil vaqtini olgan. IX-XII qo'shiqlarida Odissey o'zining Troyadan chiqib ketgach uch yil davomidagi sayohatlarini hikoya qiladi.¹ Ko'plab tillarga tarjima qilingan “Illiada” va “Odisseya” dostonlari olimlar, adiblar va muhlislar diqqatini hamon o'ziga jalb etib, ularni ko'plab ilmiy taqdiqotlar o'tkazishga ibrat olishga undaydi. Jumladan, XX asrning buyuk irland yozuvchisi Jems Joys “Ulliss” (Odisseyaning ikkinchi nomi) romanini yozishda “Odisseya” dostoni tizimidan foydalangan.²

¹ Sh.Normamatova “Jahon adabiyoti” Toshkent-2008. 11-bet

² Abdug'opir Qosimov, Siddiq Xo'jaev Chet el adabiyoti tarixi 36-bet

Yuqorida ta'kidlanganidek, "Odisseya" dostoni folklor syujetiga asoslangan, sarguzashtlarga boy dostonidir. U 24 qo'shiqdan iborat bo'lib, dastlabki qismlarida Odissey va hamrohlari Troyadan qaytganda Zevs boshiga solganlari ta'svirlanib boshlanadi. Ular Illiondan chiqqanda shamollar Ismar shahriga haydab ketadi. U yerda raitlarni mahv etib, ayollarni saqlab qoladilar. Kikonlar bilan jang qiladilar. Zevs yana shamollarni yo'naltiradi va Odissey va hamrohlari biror falokat yuz bermasin deb yaqin sohilga boradilar. Money orollari bo'ylab ketayotgan bo'rey shamollari ularni 9 kecha-kunduz sarson-sargardon qilib lotofaglar oroliga olib boradi. U yerni Sikloplar o'z oroliga aylantirgan edilar. Sikloplar – bir ko'zli devsfat afsonaviy xalq. Bu xalq, Gomerni sharhlovchi olimlarning hisobicha, Ssiliyada yashashgan.³ Orolida barcha Sikloplardan biroz uzoqda yashovchi Poseydonning o'g'li hisoblanmish bir Siklopning g'oridan Odisseyning uddaburonligi bilan halos bo'ladilar. Buning uchun u Siklopning yolg'iz ko'zini o'yib olib Poseydonning qahrini keltiradi. Undan so'ng Eoliya oroliga borganlarida podshoh Eol unga vataniga qaytishi uchun ko'maklashish maqsadida unga 9 yoshli buqa terisidan tikilgan mesh beradi. Uning ichida barcha shamollar jamlangan bo'lib, Itakaga yaqin qolganda hamrohlaridan biri: "hamma boyliklar, oltinlar Odisseyga nasib etdi biz barchasida quruq qoldik bu meshni ochib ichidagilarini olishim kerak" - deb, meshni ochib shamollarni chiqarib yuborishi natijasida Odisseyning vataniga qaytishi yanada qiyinlashadi. Voqealar rivojida Odissey Sireyaning nayranglaridan qutilgach, Tireseydan o'zi haqidagi bashoratni eshitishi kerak edi. U Tiresiyni Aid saltanatida uchratishi bilan birga Odisseyni intizor kutib, uning hajrida vafot etgan onasing ruhi bilan ham suhbat qiladi. Tiresiy Odisseyga uyiga qaytishiga Poseydon halal berishini agar hamrohlarini gunohdan tiya olsa uyiga borishini aytadi. Bu manzildan keyin 12 panjali, 6 bo'ynidan 6 bosh o'sib chiqqan Ssiliya hamlasidan qutilib, Trinikiya oroliga boradilar. U yerda ham hamrohlari mumkin bo'lmagan ishni ya'ni Geliosning ko'paymaydigan ham kamaymaydigan podasidagi mol qo'ylaridan taom tayyorlab qo'yishadi. Bu voqealardan so'ng Odissey Kallipsoning tuzog'iga tushib qoladi va hu yerda yashashga majbur bo'ladi. Mabudalar mabudasi Afina o'evsdan Odisseyga yordam berishga izn so'raydi va buning uddasidan chiqadi. Odissey qayerga borsa unga hamrohlik qiladi. Odissey esa buni asar oxirida biladi. Odisseyning rafiqasi Penelopa 20 yil uyiga kelayotgan kiyovlardan o'zining vafodorligi va sadoqati tufayli turli bahonalar izlab ularni aldab yuradi. Penelopa o'zining cheksiz muhabbati tufayli Odisseyga xiyonat qilmaydi. Bundan tashqari asarda cho'chqaboqar Yevmey ham o'z podshosiga sodiq qul sifatida asar voqealari rivojiga hissa qo'shadi. Odissey o'zining sadoqatli yori hamda sadoqatli quli yevmey va o'g'li Telemax bilan topishadi, uyidagi kuyovlarni mahv etadi. Penelopa bilan avvalgiday sevgi-muhabbatga boy hayotini davom ettiradi.

Odissey haqiqiy mard va oliyjanob qahramon sifatida gavdalantiriladi. U o'z xalqining qalbidan joy olgan qo'rquv nima ekanini bilmaydigan dovyurak podshon bo'lgan. Hattoki jodugar Sireyani boshqa yovuzlik qilmaslikka qasam ichishiga sababchi bo'ladi. Albatta bu bilan birga Penelopaning sadoqatini ham tilga olish darkor. U o'z aql-u farosati bilan kuyovlar taklifiga 20 yil mobaynida qarshilik ko'rsatgani maqtovga arzigulidir. Yana bir diqqatni tortadigan jihati shundaki, uning Argus laqabli iti ham hattoki unga cheksiz vafodorlik ko'rsatadi. Ushbu asarni sadoqatning yorqin namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning yo'li juda murakkab kechadi: g'ayritabiiy mavjudotlar, hiylakor xudolar va tabiiy ofatlar unga qarshi chiqadi. Shunga qaramay, u jasorat, aql va chidamlilik bilan barchasini yengib o'tadi. Shu orqali asar inson irodasi va qat'iyatini ulug'laydi. Asarning yana bir e'tiborga molik jihati – ramziylik va falsafiy mazmundir. Undagi har bir voqea, har bir qiyinchilik inson hayotidagi sinovlar timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. Odissening sarguzashtlari faqatgina tarixiy yoki afsonaviy hikoya emas, balki inson ruhining qidiruvlari va o'zligini anglash jarayonini ham aks ettiradi. Shu bois, "Odisseya" dostoni nafaqat sarguzashtlarga boy epik asar, balki

³ "Odisseya" dostoni Toshkent-2024. 26-bet

inson tafakkuri, irodasi va taqdir bilan olishuvining abadiy timsolidir. Undagi voqealar bir qarashda afsonaviy ko'rinib-da, ular ortida hayot haqiqatlari, inson ruhiyatining murakkab qirralari mujassam. Bu doston insonning o'zligini anglash yo'lidagi izlanishlarini, sabr va matonat orqali mukammallikka intilishini aks ettiradi. Undagi har bir sinov insoniyatning ma'naviy yetuklik sari tashlagan qadami bo'lib, bu asarni faqat o'tmish yodgorligi emas, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham beqiyos ahamiyatga ega ibrat maktabiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Odisseya" dostoni Toshkent-2024
2. Abdug'opir Qosimov, Siddiq Xo'jaev chet el adabiyoti tarixi Farg'ona-2016
3. Sh. Normatova jahon adabiyoti Toshkent-2008
4. Fayzulla Boynazarov jahon adabiyoti Toshkent-2006
5. <https://muhaz.org/uzbekiston-republikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-ulu-v2.html?page=26>

